

## INNOVATION PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR ASOSIDA LOYIXALASH USULLARI

*Do'smatova Musavvar Shuhratovna*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyixalash va ulardan ta'limda samarali, bosqichma-bosqich foydalanish, pedagogik texnologiyalarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, yangi pedagogik dars usullari

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение педагогических технологий в процессе воспитания и обучения, проектирование на основе инновационных педагогических технологий и их эффективное, поэтапное использование в образовании.

**Ключевые слова:** инновационные педагогические технологии, инновации, новые педагогические методы обучения.

Axborotlarni tezkor surhatda qabul qilib olish, ularni taxlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQSh ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini tahminlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim texnika)"si tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarni aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholanadi.

Pedagogik vaziyat real shart sharoitni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni aniqlashtirish maqsadida loyihalashtiriladi. Pedagogik texnologiyalar

loyihalashtirish obyekti bo'lib, pedagog tomonidan turli metod, shakl va vositalardan foydalanilgan holda xatti-harakatlar ketma-ketligini belgilaydi.

Ta'limiy makonni loyihalashtirish yangi turdagi o'quv binolari qurish, ularni jihozlash va shu kabilar uchun amalga oshiriladi.

Pedagogik loyihalashtirish texnologiyasi pedagogik tizimlar, jarayonlar, texnologiyalarni loyihalashtirish murakkab va ko'p bosqichli faoliyatdir. V.Bezrukova fikricha u: modellashtirish, loyihalashtirish va konstruksiyalashtirish bosqichlaridan iborat.

Pedagogik modellashtirish obyektning ideal obrazini shartli ravishda ishlab chiqish bo'lib, uning muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Modellar yozma, matn, grafik va faraziy

Pedagogik loyihalashtirish vazifalari:

Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish

Ta'lim- tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish

Shaxsning rivojlanishini oldindan bashorat etish

Pedagogika nazariyasi va amaliyotini bog'lovchi zveno

Ularda pedagogik maqsadlar, vazifalar, samarali shart-sharoit, obyektning tarkibiy qismlari va ularning faoliyat ko'rsatish usullari o'z aksini topadi.

Loyihalashtirishning ikkinchi bosqichi loyiha tuzish bo'lib, bunda model pedagogik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan darajaga yetkaziladi. Pedagogik loyihalashtirishning uchinchi bosqichi konstruksiyalash bo'lib, unda loyiha batafsil qismlarga bo'linadi, real shart-sharoitga yaqinlashtiriladi, ya'ni bunda asosan metodik ishlar bajariladi. Pedagogik loyihalashtirishning asosiy prinsiplari: shaxsiy ustuvorlik prinsipi bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'nalganlik, ularning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlari hisobga olinganligi bilan etiborga molikdir. Loyihada umumpedagogik, ya'ni tabiiylik, insonparvarlik kabi prinsiplar amalga oshirilishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirish prinsipi- dinamik rivojlanuvchan sharoitga moslashuvchan pedagogik obyektlar tizimini ko'zda tutadi. Reallik prinsipi - amalda shunday obyektidan foydalanish mumkinligini anglatadi. Pedagogik loyihalashtirishda quyidagi tartibdagi xatti-harakatlar bajariladi: I. Tayyorgarlik ishlari: loyihaladan obyektning tahlil etish, loyihalash shaklini tanlash, loyihalashtirishni nazariy va uslubiy ta'minlash, loyihalashtirishni makon, vaqt nuqtai nazaridan ta'minlash, loyihalashtirishni moddiy-texnik va huquqiy-meyoriy ta'minlash; II. Loyiha ishlab chiqish: tizim hosil qiluvchi omillar tanlashning tarkibiy qismlarining o'zaro uyg'unlashtirish, loyihalash hujjatlarini tuzish; III. Loyiha sifatini tekshirish: loyihani fikran tajriba – sinovdan o'tkazish.

Loyihani ekspert baholash, o'zgartirishlar kiritish, loyihadan foydalanish mumkinligi haqida qaror qabul qilish kabilar. Yuqorida zikr etilgan har bir xatti-

harakatlar o'z navbatida aniq maqsad va nisbatan kichik mantiqiy ketma-ket xatti-harakatlardan iborat bo'lishi tabiiy hol.

Loyihalash obyektini tahlil qilish. Eng avvalo uning tuzilmasini ko'rish, tarkibiy qismlarining har birini alohida qarab, holatini va o'zaro aloqalarini aniqlash kabi juda muhim bo'lgan amallar nazarda tutiladi. Innovatsion loyihani ishlab chiqish bosqichlari[tahrir | manbasini tahrirlash]

Innovatsion loyihani ishlab chiqish ikkita asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Investitsiya oldi. Innovatsion g'oyaning hayotiyligini qidirish va asoslash. Ilmiy va marketing tadqiqotlar va texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish.
2. Investitsiya. Pul tikish va loyihaning moddiy mujassamlashtirish.

Investitsiya oldi bosqichi[tahrir | manbasini tahrirlash]

Innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish, odatda, investitsiyalarni talab qilishi tufayli, pul mablag'larini tikish maqsadga muvofiqligini va innovatsiyalardan foyda olish imkoniyatini asoslash kerak. Loyihaning tadqiqot qismining muhim vazifasi — bu g'oya nafaqat innovatsion ekanligi, balki bozor tomonidan ham qabul qilinishini isbotlash.

Innovatsion loyihani ishlab chiqish g'oyani izlashdan boshlanadi.

Innovatsion loyiha uchun g'oyalarni izlash quyidagilar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- So'nggi ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar asosida;
- Iste'mol talabini tahlil qilish (marketing tadqiqotlari, iste'molchilar so'rovi).

Innovatsion loyiha uchun g'oyalarni izlash ijodiy vazifa, ko'pincha bu maqsadlar uchun TRIZdan foydalaniladi.

G'oyaning hayotiyligi ko'plab omillarga bog'liq:

**Xulosa.** Innovatsion loyiha — yakuniy innovatsion faoliyatning texnik-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini o'z ichiga olgan loyiha.

Innovatsion mahsulotning batafsil tavsifi, uning hayotiyligini asoslash, investitsiyalarni jalb qilish zaruriyati, imkoniyati va shakllari, ijro muddatlari, ijrochilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan, uni ilgari surishning tashkiliy-huquqiy tomonlarini hisobga oladigan hujjat innovatsion loyihani ishlab chiqishning natijasi bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion loyihani amalga oshirish — innovatsion mahsulotni yaratish va bozorga chiqarish jarayoni.

Innovatsion loyihaning maqsadi — yangi tizimlarni yaratish yoki mavjudlarini — texnik, texnologik, axborot, ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy tizimlarni o'zgartirish va resurslar (ishlab chiqarish, moliyaviy, inson) xarajatlarining pasayishi natijasida

mahsulot, xizmat ko'rsatish sifati va yuqori tijorat samaradorligini tubdan yaxshilashga erishish[1].

Innovatsion loyihalarni boshqarish bilan innovatsion menejment shug'ullanadi.

### Adabiyotlar:

- **Инновационный менеджмент: Учебник для вузов** /С. Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг, С.Ю. Ягудин и др.; Под ред. проф. С. Д. Ильенковой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 343 с. ISBN 5-238-00466-4
- **Гордиенко А. А., Еремин С. Н., Тюгашев Е. А. Г68 Наука и инновационное предпринимательство в современном обществе: Социокультурный подход.** — Новосибирск: Изд-во института археологии и этнографии СО РАН, 2000. — 280 с. ISBN 5-7803-0060-7
- **А. М. Мухамедьяров «Инновационный менеджмент», Учебное пособие, Второе издание, Москва, ИНФРА-М, 2008 ISBN 978-5-16-003094-4**
- **Фахтутдинов В. А. «Инновационный менеджмент»: Учебник для вузов 6-е изд.** — СПб, Питер, 2008 ISBN 978-5-469-01658-8
- **Балабанов И. Т. Инновационный менеджмент.** — СПб: Питер, 2001. — 304 с.
- **Инновационный менеджмент: Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. Л. Н. Оголевой** — М.: ИНФРА — М, 2002. — 238 с.